

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Mo'minova Halima**

*Qo'qon universiteti Psixologiya yo'nalishi  
III bosqich talabasi*

**Abstract:** *This article discusses the psychological characteristics of children of primary school age and their development in the educational process. It also examines the impact of methods of encouragement and punishment on the psyche of children during the educational process.*

**Keywords:** *psyche, attention, motivation, accommodation, activity, emotionality, character, experiment, emotional and volitional characteristics.*

**Аннотация:** *В статье рассматриваются психологические особенности детей младшего школьного возраста и их развитие в процессе обучения. Также рассматривается влияние методов поощрения и наказания на психику детей в процессе обучения.*

**Ключевые слова:** *психика, обращать внимание, поощрение, размещение, активность, эмоциональность, характер, экспериментальные, эмоциональные и волевые характеристики.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarning psixologik xususiyatlari va ularning o'quv jarayonida rivojlanishi yoritiladi. Shuningdek, o'quv jarayonida rag'batlantirish va jazolash usullari bolalar psixikasiga ta'siri ko'rib chiqiladi.*

**Kalit so'zlar:** *psixika, diqqat, rag'batlantirish, akkomadatsiya, faoliyat, emotsionallik, xarakter, eksperiment, emotsional va irodaviy xususiyatlar.*

Kichik yoshdagi o'quvchilarning 7-8 yoshdan 10-11 yoshgacha bo'lgan bolalar bo'lib, ular boshlang'ich sinf o'quvchilari hisoblanadi. Bu yillarda bolaning hayoti va faoliyatida muhim o'zgarishlar yo'z beradi. Binobarin, ularning psixikasida ham sezilarli darajada o'zgarishlar bo'ladi. Bolaning maktabga kirishi uning hayotida burilish chog'idir. Bola maktabga kirib o'qiy boshlashi bilanoq, uning hayotida asosiy faoliyat o'qish bo'lib qoladi. O'qish o'quvchining vazifasi, ijtimoiy burchidir. O'qituvchi bilan birinchi uchrashuvdayoq bolalar ko'p narsalarni eshitadi va maktabdagi o'qish haqida ko'p narsalarni bilib oladi va o'qishning nimaligini anglay boshlaydi. Maktabda bola sistemali ravishda yangiliklar oladi. Bu o'quvchining kundan-kunga orttirib borayotgan, xilma-xil mazmundagi bilimlarning manbaidir. Bolaning bilimlarni sistemali ravishda o'zlashtirib borishi natijasida undagi bilimning doirasi ham kengayib boradi, aqliy jarayonlar rivojlanadi, shu bilan bir qatorda, bolaning emotsional va irodaviy xususiyatlari qayta tarkib topib, rivojlana boshlaydi. Maktabdagi talim jarayonining o'zi bolaning sezgi, idrok, tafakkur, nutq va diqqatlariga yangi talablar qo'yadi. Maktabdagi o'qish, tashqiliy muayyan maqsadga qaratilgan ancha ixtiyoriy protsesslar talab qiladi. Ko'rish sezgisi bilan idrok

maktab ta'limida katta o`rin egallaydi. Gap shundaki, odam tashqi dunyodan keladigan axborotning asrsiy qismini ko`rish retseptori faoliyati orqali oladi. Ya'ni ko`rish retseptori orqali olinadigan axborot hamisha boshqa retsntorlardan keladigan axborotning 80% ga to`g`ri keladi. O`quvchilarga dars paytida o`z diqqat e`tiborini o`zoqdagi predmetlarga doimiy ravishda ko`chirib turishga to`g`ri keladi. Masalan: o`quvchi diqqatini doskadan o`qituvchining oldidagi solga, so`ngra o`zi oldidagi daftarga ko`chiradi. Bu jaorayon aksincha ham bo`lishi mumkin. Bu faoliyatda har ikkala ko`zni to`xtovsiz ravishda moslashtirish zaruridir. Bola ko`zini akkomadatsiya qobiliyati o`sa boradi. Akkomadatsiyaning eng yuqori diapozoni 10 yoshli bolalardagina kuzatiladi.

Diqqat o`qish jarayonining zarur sharti bo`lib hisoblanadi. Idrokning to`laligi, to`g`riligi, tezligi, esda qoldirishning tez va aniqligining diqqatiga bog`liqdir. Fikrlash jarayonlari diqqat tufayli aniq, mantiqli, mazmunli bo`ladi. Chunki, o`quvchilarning muttsaqil ravishda masala echishlari va masala tushunishdan oldin ular diqqatning kuchi va barqarorligini ta'minlaydi. O`quvchilarning aqliy faoliyatining zarur shartlarini ta'minlash uchun o`qituvchi kichik yoshdagi o`quvchilar diqqatining xususiyatlarini yaxshi bilishi kerak. Diqqat asosiy nerv jarayonlari bo`lgan qo`zg`alish va tormozlanishning yoki xususiyatlari to`laligicha namoyon bo`ladigan psixik aktivligining muhim tomonidir. Qo`zg`alish va tormozlanish jarayonlari kichik yoshdagi o`quvchilarning bosh miya yarim sharlari po`tsida juda tez paydo bo`ladi. Shu sababli agar bir qo`zg`aluvchi bolaning miya qobig`ida qo`zg`alishni vujudga keltirsa, 2 qo`zg`ovchi bosh miyada juda tezlik bilan yangi qo`zg`alish o`chog`ini tormozlab qo`yishi mumkin. Bu kichik yoshdagi bolaning diqqatini juda tez va oson chalg`itish mumkinligini ko`rsatadi. O`quvchilar diqqatining bu xususiyatining ularning o`qish materiallarini o`zlashtirishlariga xalaqit beradi. Shu sababli o`qituvchi bola diqqatini bunday xususiyatlarini doimo esda tutgan holda, darsning uning bir momenti bilan ikkinchisini bog`lab, utsalik bilan o`tkazishi va bu momentlarning bir-birini tormozlab qo`ymasligi uchun darsning har bir bosqichini yaxshilab o`ylab ko`rishi kerak. O`qish faoliyati tomonidan qo`yilgan jiddiy talablarning bir qismi tabiiy o`quvchilarning diqqatini ishga soladi. O`qish jarayonining ta`siri o`tsida kichik yoshdagi o`quvchilar diqqatining barcha xususiyati va sinflari intensiv ravishda o`tib boradi va bu bilan ixtiyorsiz diqqatidan ixtiyoriy diqqatga ko`chsh osonlashadi.

Kichik yoshdagi o`quvchilarda ixtiyorsiz diqqat yuqori turadi. Lekin, maktabda o`qish birinchi yiliyoq o`quvchilarda ixtiyoriy diqqatning vujudga kela boshlashiga kuchli ta`sir ko`rsatadi. Diqqatning bu turi B.T. Annoevning yozishicha, «... katta odamlar bilan bolalarning birgalika faoliyati va tarbiyaning maxsuli bo`lib hisoblanadi. Ixtiyoriy diqqatning yanada yaxshiroq o`sishi maktab yoshidagi bolalarda idrok va tafakkurning tarbiyalanishga bog`liqdir». Kichik yoshdagi o`quvchilarning ixtiyoriy diqqati to`g`risidagi masala bilan K.D. Ushenskiy ko`p shuqullangan. U ba`zi pedagoglarning, kichik yoshdagi o`quvchilarda ixtiyorsiz diqqatning afzalligiga tayangan holda maktabdagi barcha o`qish jarayonining faqat qiziqarli va maroqli qilib tashqil etish kerak degan fikrlarga qo`shilmagan. O`qish faoliyatining birinchi davrlarida o`quvchilarning ixtiyoriy diqqati butunlay o`qituvchining hukmronligida bo`ladi. O`quvchilarning darsdagi diqqatini 1-sinf

o`quvchilarining o`zlari emas, balki o`qituvchining o`zi tashqil qiladi va yo`lga soladi. Masalan, darsda kichik yoshdagi o`quvchi o`z diqqatini tarqoqligini enganligini uchun emas, balki o`zi itoat etishga majbur bo`lgan, o`qituvchining ta`siri otsida quloqsolib o`tiradi. Muayyan maqsadga qaratilgan barqaror diqqat bolalarda ham uncha rivojlanmagan tarmoqlanish jarayoni bilan bag`langandir.

O`quvchilar predmetlarni, ularning tasvirini va nutqini idrok qiladilar. Bolalar predmetlarni idrok qilishi hususiyati ularni batafsil aniq aks ettirishlari bilan harakterlanadi. Bular diqqatning hususiyati bilan tushuntiriladi. O`quvchilar diqqati asosan tashqi diqqat harakterida bo`lib, ichki diqqat ularda hali taraqqiy etmagandir. Shuning uchun yaxshi tanlangan ko`rgazmali qurol kichik yoshdagi o`quvchilarni o`qitishda foydalidir. Kichik maktab o`quvchilariga ta`lim berishda biror ko`rinishni, biror predmetni aks ettiruvchi rasmlar va boshqa ko`rgazmali qurollar katta ahamiyatga egadir. Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o`qishi ko`p jihatdan ularning maktabga tayyorgarlik darajalariga bog`liq. Bola avvalo maktabga jismoniy jihatdan tayyor bo`lishi kerak. 6 yoshli bolalarning anatomik-fiziologik rivojlanishi o`ziga xos tarzda kechadi. Bu yoshda bola organizmi jadal rivojlanadi. Uning og`irligi oyiga 150 dan 200 gacha, bo`yi esa 0,5 sm gacha ko`payadi. 6 yoshli bolalar turli tezliklarda, tez va engil yugura oladilar. Ular sakrash, qonkida yugurish, changida uchish, so`zish singari harakatlarni ham bemalol bajara oladilar. Musiqa bo`yicha mashg`ulotlarda bu yoshdagi bolalar xilma-xil ritmik va plastik harakatlarni bajaradilar, turli mashqlarni aniq, tez, engil va chaqqon bajara oladilar. Shuningdek, 6-7 yoshli bolalar nerv sistemasini mustahkamlash, ularni surunkali kasalliklardan xalos etish, ko`rish va eshitish qobiliyatiga alohida e`tibor berish, shuningdek, umurtqa pogonasining to`g`ri rivojlanishiga ahamiyat berish, nihoyatda muhim. Kattalar shu yoshdagi bolalar bilan ish olib borar ekanlar, bu yoshdagi bolalar organizmi hali o`sishi davom etayotganligini doimo hisobga olishlari lozim. Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o`qishi nafaqat uning aqliy va jismoniy tayyorgarligi, balki shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyogarliligiga ham bog`liq. Maktabga o`kish uchun kelayotgan bola yangi ijtimoiy mavqeini - turli majburiyatlari va huquqlari bo`lgan va unga turli talablar quyiladigan - o`quvchi mavqeini olish uchun tayyor bo`lishi kerak.

O`zbek psixologi N.N.Ne`matov 1 va 2-sinf o`quvchilarida umumlashtirish faoliyatini rivojlantirish maqsadida ilmiy tadqiqot ishini olib brogan. Muallif ta`lim jarayonini maxsus faollashtiruvchi usullarni qo`llaydi. Tadqiqotchi o`z kuzatishlarida o`quvchilarga savollar berib, kitob o`qitish paytida, suhbat mahalida sur`atlarni idrok qilishga, tevarak-atrofdagi vaziyatni kuzatish davomida uchraydigan narsalarni umumlashtirishga yordam beradigan maxsus usullarni tatbiq etadi. O`tkazilgan tajribalarga asoslanib, o`quv yilining oxiriga borib, eksperiment sinfi o`quvchilarining umumlashtirish faoliyati darajasi nazorat sinflaridagi o`quvchilarning umumlashtirish faoliyati bilan taqqoslanilsa, eksperiment sinfi o`quvchilarining umumlashtirish faoliyati ancha yuqori ekanligi ko`rsatib o`tilgan. Uslubiy usullar eksperiment sinfi o`quvchilarining ona tilidan ulgurish darajasini oshirishga olib kelgan. 2-sinf o`quvchilari bilan mana shu yo`sinda olib borilgan tajribalar o`xshash natijalarni bergan. O`quvchilarda mahalliy tushunchalar, atamalar miqdori keskin kamayganligi tajriba natijasida aniqlangan.

Rag`batlantirish psixikaning ijobiy sifatlari va xususiyatlarini shakllanishini

stimullashtiradi, jazolash usuli esa salbiylarining yuzaga kelishini oldini oladi. Agar amaliyotda faqatgina rag'batlantirish qo'llanilib, jazolash inkor etilsa bolalar shaxsida ijobiy sifatlar bilan biigalikda salbiy xususiyatlar ham yuzaga kelishi va shakllanishi mumkin. Agarda ta'lim-tarbiyaviy jarayon jazolashga asoslangan holda olib borilsa, unda bolada ayrim salbiy xususiyatlarning yuzaga kelishini oldini olishga olib keladi, ammo, shu bilan birga muhim ijobiy sifatlarning etarli ravishda shakllanmasligiga sabab bo'ladi. Rag'batlantirish vazolash usullarining anglangan tarzda birgalikda qollanilishi optimal motivatsiyani ta'minlagan holda bir tomondan ijobiy xususiyatlarning rivojlanishi uchun imkon yaratib beradi, ikkinchi tomondan salbiy larining yuzaga kelishiga to'sqinlik qiladi. Bolaning psixologik rivojlanishi uchun rag'batlanishi vazolanishi bir xil me'yorda stimullar sifatida muhimdir: rag'batlantirish ijobiy sifatlarning rivojlanishiga xizmat qilsa, jazolanish salbiy xususiyatlarni korreksiyasiga yoki tuzatishga qaratiladi. Amaliyotda mos holatda har ikkalovining qo'llanilishi ta'lim va tarbiya vazifalaridan kelib chiqqan tarzda o'zgarishi lozim. Agar o'quv-tarbiyaviy ishlarda shaxsning ijobiy sifatlarini shakllantirishga, yangi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga qaratilgan kuch-quvatni safarbar etish zarurati bo'lsa, unda rag'batlantirish usulini qo'llash kerak bo'ladi. Agar vazifa mavjud kamchiliklarni tuzatish bilan bog'liq bo'lsa, ayniqsa, bola o'z xulq-atvorini tuzatishga intilmasa yoki anglamasa, umuman bunga qarshilik ko'rsatsa, jazolash usullarining bunday holda qo'llanilishi o'rinli bo'ladi. Ammo bolada o'ziga bo'lgan ishonchsizlik tuyg'usi bo'lsa, o'z-o'zini baholashda hamda muvaffaqiyatga ishonchsizlikda rag'batlantirish ustunlik qilishi kerak. O'z-o'zini baholash holati yuqori bo'lganda, juda o'ziga ishongan taqdirda aksincha, jazolash usuli qo'llaniladi. Ular o'rtasidagi moslik darajasi yosh bilan, bolani mustaqillikka intilishidagi e'tirozga bog'liq holda o'zgarishi mumkin. Qanchalik e'tirozlar ko'p bo'lsa, bolaning o'z xohish irodasi va istagida yo'l qo'yilgan kamchiliklariga shunchalik qat'iy jazo qo'llanilishi lozim. Vaholanki, bolalardagi mustaqillikka intilishdagi e'tirozlar o'smirlik davrida keskin namoyon bola boshlar ekan, bu yoshda ularga bo'lgan munosabat qattiqqo'llik bilan ifodalanishi kuzatiladi. Bolalarni tarbiyalash jarayonida rag'batlantirish va jazolash usullarining xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi baholash pedagogik stimullar bo'lib xizmat qiladi: yaxshi baho rag'batlantirishni bildiradi, yomon baho esajazolashni o'taydi. Shuni inobatga olish kerakki, baholashning yuqori va past ko'rsatkichlari har doim ham o'rta ko'rsatkichlar singari stimullashtiruvchi kuchga ega bo'lavermaydi. Masalan, muvaffaqiyatga erishuvchi stimullar sifatida 5, 3 yoki 2, 1 baholar emas, balki ko'pincha 4 baho bo'ladi. Shuning uchun bola besh baho olgandan so'ng, qisman o'z o'qishini davom ettirish mohiyatini yo'qotadi, chunki besh balli baholash tizimida beshdan yuqorisi bo'lmaydi. Agar o'quvchi 4 baho oigan bo'lsa, unda yanada yuqori baho, mazkur holda 5 bahoni olishga imkon va sharoit topadi. Juda ham past, 1 baho bolaning o'z natijalarini yaxshilashga intilishini yo'qotadi, sababi, bunday bahoni ijobiy tomonga o'zgartirish murakkab bo'ladi. Odatda, o'qituvchilar yuqori baholarni qoniqarsizga o'qigan o'quvchilarga qo'ymaydilar. Uch baho sub'ektiv baho tarzida qabul qilinib, harakat qilingan taqdirda uni o'zgartirish mumkin bo'ladi. Optimal holat bo'lib, besh balli tizim sharoitida mazkur predmet bo'yicha bolaning oigan bahosi birballga kam yoki yuqori ekanligi bo'la oladi.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, kichik maktab yoshidagi bolalarga dars

jarayonida interaktiv o'yinlar va metodlardan foydalanish ta'lim jarayoniga bolaning qiziqishini orttiradi. Bunday metodlar bolada ixtiyoriy diqqatni shakllantirishga , uning psixologik xususiyatlarini rivojlanishida foydali bo'ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nishanova T. Z , Kamilova N. G' , Abdullayeva D. U, Xolnazarova M. X, Rivojlanish psixologiyasi. 2019y. 75-77-betlar.
2. P. I. Ivanov, M.E. Zufarova. Umumiy psixologiya.
3. Z. Nishonova, O. Musurmonova, B.M. Umarov. Toshkent-2012y.
4. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi
5. Yusupova Zulfizar Sharipovna, Shukurov Rahim Salimovich, Akramova Gulxayo Sharipovna (scopus) The features of the psychological preparation process of turon figrtersto competitions // International Journal of psychosocial, vol 24, ISSUE 06, 2020 ISSN:1475-7192

## ZAMONAVIY KRIPTOGRAFIYA USULLARI VA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI

**Norinov Muhammad Yunus Usibjonovich**

*Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti Farg'ona filiali*

*mnorinov@umail.com*

*Telefon: +998 93 735 00 40*

**Tug'unboyev Ismoiljon Oybek o'g'li**

*Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti Farg'ona filiali Dasturiy injiniring va  
kiberxavfsizlik fakulteti Axborot xavfsizligi yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

*E-mail: ismoiljonturgunboyev66@gmail.com*

*Telefon: +998 99 930 08 28*

**Annotatsiya:** *Maqolada axborot xavfsizligi va kriptografiyaning zamonaviy yo'nalishlari tahlil qilingan. Kriptografiya axborotni himoya qilish va yaxlitligini ta'minlashda muhim vosita sifatida ko'rsatilgan. Shuningdek, kriptografiyaning asosiy usullari, elektron imzo va kiberxavfsizlikdagi roli haqida ma'lumot berilgan. Ilmiy va amaliy takliflar orqali tizimlarni mustahkamlash tavsiya qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *Kriptografiya, Axborot xavfsizligi, Shifrlash, Kriptotahlil, Ochiq kalitli tizim, Maxfiylik, Yaxlitlik, Kriptografik algoritmlar, Sun'iy intellekt, Kiberxavfsizlik, Elektron imzo, Kriptotizimlar, Kvant kompyuterlar, Standartlashtirish, Ma'lumotlarni himoya qilish.*

**Annotation.** *The article analyzes modern trends in information security and cryptography. Cryptography is presented as an essential tool for protecting information and ensuring its integrity. Key methods of cryptography, the role of electronic signatures, and their significance in cybersecurity are discussed. Scientific and practical recommendations for strengthening systems are proposed.*

**Keywords:** *cryptography, information security, encryption, cryptanalysis, public key systems, confidentiality, integrity, cryptographic algorithms, artificial intelligence, cybersecurity, electronic signature, cryptosystems, quantum computers, standardization, data protection.*

**Аннотация.** *В статье анализируются современные направления информационной безопасности и криптографии. Криптография представлена как важный инструмент для защиты информации и обеспечения её целостности. Рассмотрены основные методы криптографии, роль электронной подписи и её значение в кибербезопасности. Рекомендовано укреплять системы с помощью научных и практических предложений.*

**Ключевые слова:** *криптография, информационная безопасность, шифрование, криптоанализ, системы с открытым ключом, конфиденциальность, целостность, криптографические алгоритмы, искусственный интеллект, кибербезопасность, электронная подпись, криптосистемы, квантовые компьютеры, стандартизация,*